




Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi
(2021- yil yanvar-may)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalari tomonidan 4825,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 108,9 % ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (84,0 %) ni tashkil etdi.



B– Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**–Ishlab chiqaradigan sanoat **D**–Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash, **E**–Suv bilan taʼminlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilizatsiya qilish.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
sanoat ishlab chiqarish, FHI* % da




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatining - 10,6 % ga hamda elektr, gaz, bugʻ bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 2,0 % ga o'sishi kuzatildi.

Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoatining – 22,3 % ga, togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining -39,1 % ga pasayishi kuzatildi.


*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 15,3 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ini tashkil etdi.




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-may	2021- yil yanvar-may	Farqi +/-
Shagʻal , ming t.	0,0	0,0	0,0




Ishlab chiqaradigan sanoat







2021-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4066,9 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 84,2 % ini tashkil etdi.



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da






O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,8 % ni (2020- yilning yanvar-may oylarida - 2,8 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 6,8 % (5,9 %), o'rta-quyi texnologiyali - 13,1 % (10,5 %) va quyi texnologiyalisi - 78,4 % (80,8 %) ni tashkil etdi.

Yuqori texnologiyali

O'rta-yuqori texnologiyali

O'rta-quyi texnologiyali

Quyi texnologiyali


Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 40,9 % (2020-yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 122,7 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 21,6 % (2020-yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,7 %), elektr uskunalari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 2,4 % (2020-yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 81,1 %), asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 1,4 % (2020-yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 64,7 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,8 % (2020-yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 99,1 %) ni tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati, % da

2021- yilning yanvar-may oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 32,9 ming tonna paxta tolasi (2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 3,0 martaga o'sgan), 26,8 ming tonna omuxta yem (4,7 %) ishlab chiqarilib yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.


O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da
Yumshoq bug'doy va spelta uni

Paxta tolasi

Omuxta yem

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-may	2021- yil yanvar-may	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming tonna	10,9	32,9	22,0
Aroq – ming litr 100 % spirt	153,3	0	-153,3
Konyak spirti – ming litr 100 % spirt	0	0	0
Vino, ming litr	236,1	0	-236,1
Un, ming tonna	54,1	53,9	-0,2
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	11,3	6,2	-5,1



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

2021- yilning yanvar-may oylarida




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 692,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (14,4 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-may oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 2,0 % ga oshganligi kuzatildi.



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi
(yil boshidan I- V oylar, % da)






Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish



Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-may	2021- yil yanvar-may	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	1833,4	2710,8	877,4
Issqlik energiyasi, ming gkal	52,1	38,8	-13,3



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 50,8 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,1 % ini) tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi
(yil boshidan I- V oylar, % da)
2020-yil % da

2021- yil % da



Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-may	2021- yil yanvar-may	Farqi +/-
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	18,1	30,8	12,7
Oqava suvlarni shlami, mlrd.so'm	1,8	4,9	3,1
Shahar xo'jaligining qayta ishlanishga yaroqli havfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	10,2	9,9	-0,3
To'qimachilik chiqindilari, tonna	0,0	9,0	9,0
Xavfsiz metall chiqindilari, ming.t	0,0	0,0	0,0

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 70,2 % ga, oqava suvlarni shlami 2,7 martaga ortganligi, hamda shahar xo'jaligining qayta

ishlanishga yaroqli havfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar 2,9 % ga pasayganligi kuzatildi.


Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2554,2 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 114,8 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 52,9 % ni tashkil etdi.















Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 41,7 % ni, shuningdek, Namangan tumani 11,9 % ni, To'raqo'rg'on tumani 8,6 % ni, Chust tumani 8,0 % ni, Kosonsoy tumani 7,3 % ni, Uchqo'rg'on tumani 5,1 % ni hamda Pop tumani 4,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (114,8 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Chust (2,3 marta), Mingbuloq (147,4 %), To'raqo'rg'on (153,8 %), Kosonsoy (138,0 %) tumanlarida qayd etildi.















**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
2021- yilning yanvar-may oylarida**

	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>	
	1063,2	41,6	110,1	Namangan sh.		219,4	8,6	153,8
						To'raqo'rg'on		
	79,3	3,1	147,4	Mingbuloq		93,3	3,6	114,3
						Uychi		
	185,2	7,3	138,0	Kosonsoy		131,3	5,1	84,5
						Uchqo'rg'on		
	304,3	11,9	86,9	Namangan		61,7	2,4	111,4
						Chortoq		
	29,9	1,2	97,6	Norin		204,0	8,0	227,2
						Chust		
	108,5	4,2	108,8	Pop		74,1	2,9	114,0
						Yangiqo'rg'on		

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 37,6 % ni, shuningdek, Namangan tumani 13,2 % ni, To'raqo'rg'on tumani 12,2 % ni hamda Chust tumani 10,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Chust (2,7 marta), To'raqo'rg'on (162,9 %), Kosonsoy (142,6 %) hamda Mingbuloq (138,2 %) tumanlarida qayd etildi.


**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
2021- yilning yanvar-may oylarida**













	<i>Mlrd. so'm</i> 612,1	<i>Ulushi % da</i> 37,6	<i>O'sishi % da</i> 105,6		<i>Mlrd. so'm</i> 199,6	<i>Ulushi % da</i> 12,2	<i>O'sishi % da</i> 162,9
Namangan sh.				To'qayo'rg'on			
	<i>Mlrd. so'm</i> 61,8	<i>Ulushi % da</i> 3,8	<i>O'sishi % da</i> 138,2		<i>Mlrd. so'm</i> 47,5	<i>Ulushi % da</i> 2,9	<i>O'sishi % da</i> 85,8
Mingbuloq				Uychi			
	<i>Mlrd. so'm</i> 166,1	<i>Ulushi % da</i> 10,2	<i>O'sishi % da</i> 142,6		<i>Mlrd. so'm</i> 40,9	<i>Ulushi % da</i> 2,5	<i>O'sishi % da</i> 81,7
Kosonsoy				Uchqo'rg'on			
	<i>Mlrd. so'm</i> 215,1	<i>Ulushi % da</i> 13,2	<i>O'sishi % da</i> 96,0		<i>Mlrd. so'm</i> 21,7	<i>Ulushi % da</i> 1,3	<i>O'sishi % da</i> 89,2
Namangan				Chortoq			
	<i>Mlrd. so'm</i> 15,0	<i>Ulushi % da</i> 0,9	<i>O'sishi % da</i> 95,4		<i>Mlrd. so'm</i> 172,9	<i>Ulushi % da</i> 10,6	<i>O'sishi % da</i> 268,6
Norin				Chust			
	<i>Mlrd. so'm</i> 43,1	<i>Ulushi % da</i> 2,6	<i>O'sishi % da</i> 110,4		<i>Mlrd. so'm</i> 33,4	<i>Ulushi % da</i> 2,1	<i>O'sishi % da</i> 90,2
Pop				Yangiqo'rg'on			

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 48,9 % ni, shuningdek, Uchqo'rg'on tumani 9,8 % ni, Namangan tumani esa 9,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Mingbuloq tumani (192,6 %), Yangiqo'rg'on tumani (145,7 %) hamda Chortoq tumanida (128,5 %) qayd etildi.



Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati (2021- yilning yanvar-may oylarida)

	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	451,1	48,9	116,8		19,8	2,1	98,1
Namangan sh.				To'qaqo'rg'on			
	17,5	1,9	192,6		45,8	5,0	126,5
Mingbuloq				Uychi			
	19,1	2,1	107,8		90,4	9,8	85,8
Kosonsoy				Uchqo'rg'on			
	89,3	9,7	70,7		40,0	4,3	128,5
Namangan				Chortoq			
	14,7	1,6	99,8		31,0	3,4	122,2
Norin				Chust			
	65,5	7,1	107,8		40,7	4,4	145,7
Pop				Yangiqo'rg'on			
















Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 2021- yilning yanvar-may oylarida

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1450,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 30,1 % ni tashkil etdi.


**Hududlar kesimida
sanoat ishlab chiqarish hajmlari
2021- yilning yanvar-may oylarida**


	Mlrd. so'm			Ulushi % da			O'sishi % da		
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	ViLOYAT								
	1824,6	37,8	108,2	Namangan sh					
	812,6	16,8	124,8	To'raqo'rg'on					
	246,3	5,1	93,3	Mingbuloq					
	297,4	6,2	102,0	Uychi					
	189,3	3,9	114,6	Kosonsoy					
	314,1	6,5	92,1	Uchqo'rg'on					
	399,6	8,3	91,6	Namangan					
	68,0	1,4	101,0	Chortoq					
	151,2	3,1	86,5	Norin					
	287,8	6,0	121,3	Chust					
	159,0	3,3	107,0	Pop					
	75,2	1,6	107,0	Yangiqo'rg'on					


**Hududlar kesimida ishlab
chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari
ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da**


Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida To'raqo'rg'on (2020-yil yanvar-may oylariga

nisbatan 124,8 %), Chust (121,3 %), Kosonsoy (114,6 %), Namangan shahar (108,2 %) hamda Pop (107,0 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

Sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi indeksi, % da



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati, % da



Viloyat jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Namangan shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 37,8 % i) hamda To'raqo'rg'on (16,8 %), Namangan (8,3 %), Uchqo'rg'on (6,5 %), va Uychi (6,2 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Chortoq (1,4 %) hamda Yangiqo'rg'on (1,6 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga To'raqo'rg'on tumani (3556,1 ming so'm), Namangan shahrida (2822,3 ming so'm), Namangan tumani (2218,6 ming so'm), Mingbuloq (1915,6 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (1679,6 ming so'm) yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Bu borada eng past ko'rsatkich Chortoq (335,8 ming so'm), Yangiqo'rg'on (338,3 ming so'm), Pop (713,1 ming so'm) va Kosonsoy (889,7 ming so'm) tumanlarida ko'rsatilmoqda.




Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish 2021- yilning yanvar-may oylarida, ming so'm

	Sanoat mahsulotlari		Iste'mol mahsulotlari		
	1679,6		889,0		
Viloyat					
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	2822,3	1644,7		3556,1	960,3
	Namangan sh			To'raqo'rg'on	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	1915,6	616,4		1368,5	429,3
	Mingbuloq			Uychi	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	889,7	868,2		1795,7	750,9
	Kosonsoy			Uchqo'rgo'n	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	2218,6	1689,8		335,8	304,5
	Namangan			Chortoq	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	908,4	179,6		1067,2	756,2
	Norin			Chust	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	713,1	486,4		338,3	333,4
	Pop			Yangiqo'rg'on	



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda
kichik biznesning ulushi**
2021- yilning yanvar-may oylarida, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2010,2 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 41,7 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiqo'rg'on (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chortoq (100,0 %), Kosonsoy (68,6 %) va Uychi (68,0 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyat hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, eng kichkina ulush Uchqo'rg'on (11,7 %), To'raqo'rg'on (12,1 %), Mingbuloq (22,5 %) va Chust (32,3 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
(2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 6984 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 2661 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 38,1 % i) Namangan shahriga, 546 tasi (7,8 %) Uychi tumaniga, 534 tasi (7,6 %) Chust tumaniga, 524 tasi (7,5 %) Kosonsoy tumaniga, 507 tasi (7,3 %) Namangan tumaniga, 462 tasi (6,6 %) To'raqo'rg'on tumaniga to'g'ri kelmoqda.





2021- yilning yanvar-may oylarida viloyatda 792 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 185 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 23,4 %) Namangan shahrida, 86 tasi (10,9 %) Norin tumanida, 73 tasi (9,2 %) Chust tumanida, 69 tasi (8,7 %)

Kosonsoy tumanida, 65 tasi (8,2 %) To'raqo'rg'on tumanida hamda 64 tasi (8,1 %) Uychi tumanida tashkil etildi.



Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonolari
2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonolari joylashgan hududlar 6 taligida Namangan shahar (2 661 ta), Uychi (546 ta), Chust (534 ta), Kosonsoy (524 ta), Namangan (507 ta), To'raqo'rg'on (462 ta) tumanlari qayd etildi.



2021-yilning 1-iyun holatiga ko'ra viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonolari joylashgan hududlar 6 taligida Mingbuloq (191 ta), Pop (282 ta), Chortoq (290 ta), Uchqo'rg'on (310 ta), Yangiqo'rg'on (312 ta) hamda Norin (365 ta) tumanlari qayd etildi.

Sanoat statistikasi
bo'limi

Tel.: (69) 227-84-80